

O'ZBEK ADABIY TILINING ME'YORLARI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Biologiya yo'nalishi 1 bosqich talabasi

To'lqinova Sarvinoz Lazizbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiy tilining me'yorlari, qayerda qanday gapirish kerakligi, jamoat joyida ishlatilishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan so'zlar shuningdek, umumme'yor darajasidagi talablar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: vosita, unsur, shakl, me'yor, nutq madaniyati, axloq, adabiy til, alifbo, sheva, me'yor.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о нормах узбекского литературного языка, о том, где и как говорить, о словах, которые можно и нельзя употреблять в общественном месте, а также о требованиях общепринятого уровня.

Ключевые слова: средство, элемент, форма, норма, культура речи, мораль, литературный язык, алфавит, диалект, норма.

Annotation: This article will talk about the norms of the Uzbek literary language, where to speak, words that can and cannot be used in a public place, as well as requirements at the national level.

Keywords: medium, element, form, norm, culture of speech, morality, literary language, alphabet, dialect, norm.

Adabiy til — muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlash-tirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. „Qayta ishlangan“ tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til

o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqda ham Adabiy til turli davrda turlicha bo'lgan (mas, qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi o'zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili Adabiy til vazifasini o'tagan. Masalan, fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili; ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili va boshqa Adabiy til bo'lgan. Adabiy til ning ikki — og'zaki ham yozma ko'rinishi mavjud.¹ Har qanday Adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashti-radi va barcha sheva vakillari uchun tushu-narli shakl oladi. Rivojlangan Adabiy til siz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda Adabiy til jamiyatning dol-zarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba'zan uni turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma Adabiy til va og'zaki Adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan Adabiy til ni ayni bir deb bo'lmaydi. Adabiy til o'z mezonlarini egallagan shu tilda so'zlashuvchilar barchasi uchun bir-dekabr U ham yozma, ham og'zaki shakllarda amalda qo'llanadi. ²

Nutq madaniyatiga erishishning asosiy omili tilni, ayniqsa adabiy til me'yorlarini egallash, ulardan unumli va o'rinli foydalanishdir. Hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib tuzilgan nutq aniq, to'g'ri va ta'sirchan holda tinglovchiga yetib boradi.

Me'yor-so'zining mavjud bo'lgan ma'nosi, fonetik tuzilishi. S.I.Ojegov fikricha, "Me'yor-bu ijtimoiy jarayonda birga mavjud bo'lgan, bor bo'lgan, yangi paydo bo'lgan yoki o'tmishning kam ishlatiladigan til unsurlarini (lug'aviy, talaffuz, morfologik, sintaktik) tanlashning natijasi sifatida shakllangan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali til vositalari yig'indisidir, keng ma'noda bu unsurlarni baholashdir". Adabiy me'yor o'z holicha shakllanadi. Uning shakllanish va taraqqiyotiga tilning tarkibiga kiruvchi lahja, shevalar turlicha hissa qo'shadilar. Qaysi hududda savdo, fan madaniyat taraqqiy etgan bo'lsa, me'yorga ham o'sha hududdagi shevalarning ulushi ko'proq bo'ladi.

¹ Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari Buxoro, 2002.

² O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Me'yor til qurilishi unsurlarining hammasiga tegishli. Adabiy me'yor umumiy me'yordan olinadi, unga suyanadi. Adabiy me'yor umumiy me'yorning xususiy ko'rinishi bo'lgani uchun undan hajm jihatidan kichikdir.

Og'zaki adabiy normaning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, ertakchi, latifachi, dostonchi, xalq shoir-baxshilari katta hissa qo'shadilar. Nutq madaniyati adabiy me'yorlarni tadqiq etar ekan, u me'yordagi mustahkam va zaif o'rinlarni belgilaydi. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi.

So'zlovchi yoki tinglovchi gapirganda yoki eshitganda ma'lum odob, axloq me'yorlariga rioya qiladi, chiroyli va ta'sirchan gapirishga intiladi, tilga hurmat bilan munosabatda bo'ladi, o'z gapi va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'ladi, o'rinli so'zlash va tinglash madaniyati, suhbat va munozara madaniyatiga amal qiladi. Bular umum-me'yor darajasidagi talablardir. Nutq madaniyatida ham adabiy til me'yori-o'lchovi zarur. "Til me'yori-bu til birliklari va uning qurilishini o'zaro yaxshi tushunish zaruriyati tufayli paydo bo'lgan, undan foydalanuvchi xalq tomonidan yaratilgan amaldagi qoldalar yig'indisidir" -deb ta'kidlaydi olim B.N.Golovin. Til unsurlarining xalq o'rtasida ko'pchilikka maqul bo'lgan variantini tanlash-adabiy til me'yori hisoblanadi.³

O'zbek adabiy tilining me'yorlari:

1.Fonetik funktsiyalar.

Bunda qo'llanilishi me'yor hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy unli va undosh tovushlarning qo'llanilishi me'yor hisoblanadi.

2.Leksik-semanik me'yor (so'z qo'llash)lar.

So'z variantlaridan hamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishini tanlab olish hozirgi o'zbek tilining lug'aviy me'yori hisoblanadi. Imin talaffuz, tarjima lug'atlarida

³ <https://soff.uz/product/ona-tili-ozbek-adabiy-tilining-meyorlar>

lug'aviy me'yor o'z aksini topadi. So'zning ma'nosini bilmay ishlatish, shevaga xos so'zlarni qo'llash, paronimlarning ma'nosini tishunmasdan ishlatish rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri alik tor me qilish me'yor hisoblanmaydi.

Masalan, bo'lsa o'rnida bo'sa so'zini ishlatish, yorug' o'rnida yoruq so'zidan foydalanish Rus tilidan tarjima qilish asosida: Bazm kechasining Jaktume yorlari (orforpik). ste jaolude acaiy til me'yorlariga mos so'rovi hech qanday natija bermadi.

3. Talaffus me'yorlari: (orfoepik).

Til birliklarining og'zaki nutq jarayonida adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi. Ruscha so'zlarni yozma shaklga taqlid qilib aytish- (Moskva to'g'ri aytilishi Maskva) so'zlarni o'zbekcha aksent bilan talaffus etish (Angliya) shevaga xos talaffus (yo'l-jo'l) talaffus me'yorlarini egallashda orfoepik lug'atlarning ahamiyati katadir.

4. Aksentologik (urug'ining to'g'riligi) (me'yorlar).

Bunda so'z va gaplarda urg'uni to'g'ri qo'llash me'yorlari tushuniladi. Urg'uni to'g'ri ishlatmaslik so'z ma'nosiga ta'sir qiladi: olma-meva, olma-buyruq fe'li.

5. Grammatik me'yor:

Turlovchi va tuslovchi maqbul variantlari hozirgi tillimizda tanlab olingan va ular nutqda barqaror shaklda ishlatiladi. Ammo kelishik qo'shimchalarini noto'g'ri qo'llash uchraydi. Ba'zan-ning o'rnida-ni, lar o'rnida la ishlatiladi. Direktorni xonasida ko'rdim. (direktomi o'z xonasida ko'rmoq). Direktorning xonasida ko'rdim. (Boshqa birovni direktor xonasida ko'rmoq).

6. Soz yashash me'yorlari:

So'z yasovchi qo'shimchalarning fonetik tuzilishi jihatidan bir qolipda ishlatilishi so'z yasash me'yorlari hisoblanadi. Ba'zan nuqtda sifat yasovchi -va ot yasovchilik qo'shimchalari farqlanmay ishlatiladi. Paxtali chopon mida paxtalik chopon.

7. Imloviy me'yorlar (orfografik).

Hozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari 1956-yil "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalariga" tayahadi 72 paragrafdan iborat. 1995-yil yangi lotin alifbosiga o'tish haqida qaror qabul qilindi.

Lotin alifbosiga asoslangan yozuvda ham yangi orfografik qoidalar aidi Bo'g'in ko'chirish qoidalariga o'zgartirishlar kiritildi. Demak, imloviy me'yor so'zlarning to'g'ri, xatosiz yozilishiga asoslanadi.

8. Grafik(yozuv)me'yorlari:

Hozirgi yozuvimiz lotin alifbosiga asoslangan harf birikmasidan iborat. bo'lib, 29 ta harf va 3 ta

9. Punktatsion me'yorlar:

Bu me'yor 10 ta tinish belgisi asosida ish yuritadi (nuqta, vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, tire, undov belgisi, so'roq belgisi, kop nuqta, qoshtimoq, qavs)

10. Uslubiy me'yor:

Nutq sharoitiga qarab til birliklarining eng ma'qulini qo'llash adabiy tilning uslubiy me'yori hisoblanadi. Sinonimlardan noto'g'ri foydalanish, so'z takror ayrim eskirgan so'zlarni qo'llash nutqni uslubiy jihatdan buzadi.⁴

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytamanki, o'zbek adabiy tilida vulgar so'zlar va ularning qo'llab bo'lmaslik darajasi yuqori darajada. Negaki, jamiyatda bunday so'zlar ishlatish odobsizlik va tarbiasizlik hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining me'yorlari 1956-yil "O'zbek orfografiyasining asosiy qoidalariga" tayahadi 72 paragrafdan iborat. 1995-yil yangi lotin alifbosiga o'tish haqida qaror qabul qilindi.

⁴ Begmatov E, Boboyev A., Asanmiddinova M. Adabiy norma va nafa madaniyati. T., 1983.

Lotin alifbosiga asoslangan yozuvda ham yangi orfografik qoidalar aidi Bo'g'in ko chirish qoidalariga o'zgartirishlar kiritildi. Demak, imloviy me`yor so`zlarning to`g`ri, xatosiz yozilishiga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qilichev E., Qilichev B. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari Buxoro, 2002.
2. Qo'ng'irov R, Begmatov E. Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 1992.
3. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari T., 1993.
4. Begmatov E, Boboyev A., Asanmiddinova M. Adabiy norma va nuta madaniyati. T., 1983.
5. Tojiyev Yo. Hasanova N, Tojimatov H. Yo'ldosheva O. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. T. 1994
6. <https://soff.uz/product/ona-tili-ozbek-adabiy-tilining-meyorlar>.
7. <https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/tilshunoslik/o-zbek-adabiy-tilining-me`yorlari>.